

Sen baribir muqaddassan - muqaddas ayol



Sen baribir muqaddassan - muqaddas ayol


Yasharish va yangilanish fasli bo'lmish bahorning ilk bayrami 8-mart "Xalqaro xotin-qizlar kuni" bayrami munosabati bilan Termiz shahar hokimi Isroil Xudoyberdiyev tashabbusi bilan el-yurt manfaatlarini yo'lida ko'p yillar sadoqat va fidoyilik bilan xizmat qilgan, hayotning achchiq-chuchugini totigan, mehnat faoliyati davomida yosh avlodni ona-Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalab, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatgan, hozirgi kunda farzandlari va nabiralari ardog'ida keksalik gashtini surayotgan faxriylar, shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj keksa avlod vakillari, nogiron va yakka-yolg'iz qariyalar, kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan bir so'z bilan aytganda, munis onaxonlarimizni xolidan xabar olindi.

Bayram munosabati bilan nuroniy, muhtarama onaxonlarimizga Termiz shahar hokimining tabrigi o'qib eshittirildi va sovg'alar ulashishdi. E'zozdan qalbi bir olam quvonchga to'lgan faxriylar va keksalarning tilida va dilida shukronalik bilan

yurtimizga tinchlik so'rab duo qildilar.

Xulosa o'rnida aytganda, keksalarimizning duoga ochgan qo'llari, yuzlaridagi mamnunlik ifodasini ko'rib, ularni qancha ko'p qadrlab e'zozlasak, hurmat va ehtirom ko'rsatsak ham shu qadar kam ekanligini yana bir karra his etasan kishi.

Zero, bugungi farovon hayot va shodumon kunlarga yetishimizda ularning beminnat hisssasi bor, mehnatlari singgan. Shunday ekan, tonadonlarimiz fayzi, farishtasi bo'lgan nuroniylarning duosini olib yurish barchamizga nasib aylasin ilohim.







Image not found or type unknown






Image not found or type unknown




Image not found or type unknown

